



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмуратов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурманова – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanova – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Iosifovna,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

SOTSILOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Myсаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroti	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lif davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibositov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhittdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'r ganilishi	63
Аскарова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbanova B.N. Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA

Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiiev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



Dusnayev Sherzod Ergashevich,
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari, i.f.f.d. (PhD)*
e-mail: census@stat.uz

O'ZBEKISTON AHOLISI SONI VA TARKIBIDAGI DINAMIK O'ZGARISHLARNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlar, dunyo aholisida mamlakatimizning tutgan o'rni, hududlarda aholining o'sish holatlari, aholi sonining o'sishiga ta'sir etuvchi omillar, aholining jins tarkibi, shahar va qishloqlarda yashovchi aholi guruhlari, tabiiy o'sish (kamayish), migratsion o'sish (kamayish), umumiy o'sish (kamayish), aholining joylashuvi, urbanizatsiya darajasi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: aholi soni, aholi tarkibi, demografik salohiyat, notejis, to'lqinsimon, yangi tendensiyalar, aholi zichligi, o'rtacha, tabiiy o'sish, migratsion kamayish, oilalarning demografik mayl tendensiyalari.

Аннотация. В данной статье население Республики Узбекистан и динамические изменения в его составе, место нашей страны в мировом населении, прирост населения в регионах, факторы, влияющие на прирост населения, гендерный состав населения, группы населения, проживающие в городах и селах, естественный прирост (убыль), миграционный прирост (снижение), общий прирост (уменьшение), размещение населения, уровень урбанизации выделены в анализе.

Ключевые слова: численность населения, состав населения, демографический потенциал, неравномерный, волнистый, новые тенденции, плотность населения, средняя, естественный прирост, миграционный упадок, демографические тенденции семей.

Annotation. The analysis the population of the Republic of Uzbekistan and dynamic changes in its composition, the rank of our country in the world population, population growth in regions, factors affecting population growth, gender composition of the population, population groups living in cities and rural areas, natural growth (decrease), migration growth (decrease), total growth (decrease), population location and level of urbanization opportunities are highlighted in this article.

Keywords: population size, composition of population, demographic potential, uneven, wavy, new trends, population density, average, natural growth, migration decline, demographic trends of families.

Kirish. Respublikamizda amalga koshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholining farovon hayotini ta'minlash, demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish, demografiya sohasidagi qonunchilikni, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida demografik

statistikani takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash va hayot sifatini yaxshilash, barvaqt o'limning oldini olish va salomatlikni asrash maqsadida majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish, hududlardagi demografik vaziyat va prognozlardan kelib chiqib, ijtimoiy sohani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “adolatli ijtimoiy siyosatni yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yboga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Bu borada demografik jarayonlarni tizimli tahlil qilish va kompleks statistik baholash, demografik prognozlash, demografik xavfsizlik indikatorlarining chegaraviy qiymatlarini aniqlash, demografik jarayonlar dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘p omilli statistik tahlil qilish, aholi statistikasini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni va tarkibida ro‘y berayotgan dinamik o‘zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlilini ilmiy asoslangan holda amalga oshirishdan iborat. Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda asosiy ma’lumotlar manbalaridan birinchisi va eng asosiysi bu aholini ro‘yxatga olish hisoblanadi. O‘zbekiston hududida so‘nggi bor 1989-yilda aholini yoppasiga ro‘yxatga olish tadbiri o‘tgakzilgan. Bugungi kungacha mamalakatimizda bir marotaba bo‘lsa ham aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilmagani aholisi soni, tarkibi va boshqa demografik ko‘rsatkichlarda ro‘y berayotgan dinamik o‘zgarishlarning ilmiy asoslangan holda tahlil qilish va hulosalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi sonining joriy hisobini yuritish, birlamchi ma’lumotlar manbalari, jarayonlarni avtomatlashtirish, statistik ma’lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, demografik jarayonlarni o‘rganish usullari va aholini ro‘yxatga olishga tayyorlarlik jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan hujjatlar¹ va Vazirlar Mahkamasining qarorida² qayd etilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3064981>.

Tug‘ilish, o‘lim, tuzilgan nikohlar, nikohdan ajralishlar va migratsiya ko‘rsatkichlarini qayta ishslashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining qarori va xorijiy hamda ichki statistik tasniflagichlar asos hisoblanadi.

Maqolada aholi demografiyasini statistikasi masalalariga oid adabiy manbalardan foydalаниldi. Akademik Q.X. Abdurahmonov aholi migratsiyasiga umumiyo‘ ko‘rinishda odamlarning bir mintaqasi (mamlakat, shahar, qishloq)dan boshqasiga, qator hollarda katta guruh holida va uzoq masofaga ko‘chishi sifatida ta’riflagan³.

Taniqli geograf A.I.Alekseyev o‘tmishning tendensiyalarini va kelgusida rivojlanishning ehtimoliy variantlarini hisobga olmagan holda bir muncha boshqacha ta’rif beradi: “Demografik vaziyat – bu mazkur hududda yuzaga kelgan, aholining ushbu payt uchun muayyan yosh-jinsiy tarkibi va uning sonining dinamikasini yaratuvchi tug‘ilish, o‘lim va migratsion harakatchanlik nisbatidir”⁴.

Maqolada keltirilgan ayrim tahlillar “O‘zbekiston Respublikasining demografik holati” bo‘yicha press-reliz ma’lumotlariga asoslangan⁵.

Aholining turli maqsadlarda, ya’ni yangi yerlarni o‘zlashtirish, daromad topish, o‘qish, yashash hamda siyosiy nuqtayi nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirishga “aholining mexanik harakati” deylidi⁶.

Ushbu maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalaniilgan. Maqolaning ilmiy-nazariy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning demografik jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar va yondashuvlar tashkil etib, ular asosida ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida iqtisodiy mantiqiy, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, dinamik qatorlar, guruhash va boshqa usullardan foydalaniilgan.

³ Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 284-b.

⁴ Алексеев А.И. Социально-экономическая география России. – Москва: Новый хронограф, 2013. – 73 с.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

⁶ Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 113 b.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mamlakat rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va jamiyatning demografik tavsifi o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish, aholi jon boshiga kun ko‘rish uchun zarur bo‘lgan minimum kabi ko‘rsatkichlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan mustahkam bog‘liqlik mavjud. Bu bog‘liqlik doim ham yaqqol ko‘zga tashlanmaydi, chunki demografik jarayonlar juda sekinlik bilan ro‘y beradi. Lekin ma’lum bir vaqt o‘tishi bilan ular moslashib olish, shuningdek, ularning oldini olish uchun tegishli choralar ko‘rishi talab qiladigan, qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yuqorida bayon qilinganlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida demografik jarayonlar ustuvorligini belgilab beradi. Shu sababli bugungi kunda bu jarayonlarni o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.


Respublikamiz so‘nggi 20–30 yil ichida demografik rivojlanish jarayonida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillarning taraqqiy etishi bilan bog‘liq qator davrlarni bosib o‘tdi. O‘zbekiston ancha yuqori salohiyatga ega yosh va jadal o‘sib borayotgan aholiga ega. Demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyati tug‘ilish darajasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari, o‘lim darajasining past ko‘rsatkichlari, tashqi migratsiyaning bir muncha salbiy saldosi, jami aholida qariyalar ulushining ortishi, parallel ravishda aholining o‘rta yoshlilar sonining ko‘payishi, urbanizatsiya jarayoni ortayotgani bilan tavsiflanadi.

Demografik jarayonlarga ilmiy-nazariy baho berish va tizimli tahlil qilishda imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ilmiy yondashuvlar asosida yangi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni hozirda amaliyotga tabbiq qilish davom ettirilmoqda. Xususan, aholi takror barpo bo‘lishining brutto-koeffitsiyenti, aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti, aholi takror barpo bo‘lishining foydalilik koeffitsiyenti, aholining qarish koeffitsiyenti (darajasi), demografik xavfsizlik indikatorlari va ularning chegaraviy qiymatlari, oilalar soni, ko‘p bolali oilalar soni, keksalik salohiyati koeffitsiyenti

(darajasi) kabi ko‘rsatkichlar statistika amaliyotida mamlakatimizning demografik holatini baholashda foydalalanilmoqda⁷.

O‘zbekiston MDHdagi eng yuksak demografik salohiyatga ega davlat hisoblanib, 2022-yilda mintaqqa aholisining 12,5 foizi va Markaziy Osiyo mintaqasining 45,7 foizi mamlakatimiz hissasiga to‘g‘ri kelgan. Aholi soni bo‘yicha O‘zbekiston 242 ta davlat ichida 41-o‘rinda⁸.

MDH davlatlarida tabiiy o‘sish holati 2022-yilda Rossiya Federatsiyasida – -599,6 ming kishi, Belorus Respublikasida – -23,3 ming kishi, Moldova Respublikasida – -1,0 ming kishi, Qozog‘iston Respublikasida – 270,4 ming kishi, Tojikiston Respublikasida – 249,8 ming kishi, Ozarbayjon Respublikasida – 147,5 ming kishi, Qирг‘изистон Respublikasida – 138,2 ming kishi, Armaniston Respublikasida – 12,8 ming kishi va O‘zbekistonda – 754,1 ming kishini tashkil qilgan⁹.




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni, yil oxiriga (ming kishi)

⁷ “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 24-maydag‘i 10-son qarori // <https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat>.

⁸ Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti: <http://new.cisstat.org/>

⁹ O‘zbekistonning demografik yillik to‘plami: 2018–2022-yillar. – 213 b.



2-rasm. Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish sur'atining o'zgarishi, yil oxiriga (foizda)

O'zbekiston Respublikasida tabiiy o'sish aholi sonining yuqori sur'atda o'sishini ta'minlamoqda (1- va 2-rasmlar). 1- va 2-rasmlardan ko'rilib turganidek, O'zbekistonda 2018-yilda doimiy aholi soni 33255,5 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 36799,8 ming nafarga yetgan yoki 10,7 foizga ko'paygan. Bu davrda doimiy aholi sonining o'sish sur'ati Toshkent shahrida (21,2 foiz), Surxondaryo (12,0 foiz), Jizzax (11,5 foiz), Namangan (11,4 foiz), Qashqadaryo (10,8 foiz), Samarqand (10,8 foiz), Andijon (10,7 foiz), Farg'ona (10,3 foiz) va Sirdaryo (10,1 foiz)

viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan baland, shuningdek, qolgan hududlarda esa past bo'lganligi kuzatildi.

Respublika aholisining uchdan ikki qismi (66,3%) Samarqand (11,4%), Farg'ona (11,0%), Qashqadaryo (9,7 %), Andijon (9,2 %), Namangan (8,3 %) va Toshkent (8,3 %) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (8,3 %) yashaydi.

2-jadvalda ko'rilib turibdiki, hududlarning aholi soni bo'yicha guruhanishi tahlillariga muvofiq, 2019-yilda mamlakatimizda aholisi soni 4 million va undan yuqori bo'lgan hudud bo'limgan, 2021-yilga kelib, birgina Samarqand viloyati aholisi soni 4 milliondan oshgani kuzatilgan, 2022-yilda esa mazkur guruhga Farg'ona viloyati ham qo'shilganini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarda respublika aholisi notekis, to'lqinsimon ravishda o'sdi, bu demografik jarayonlarda yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Chunonchi, 1990-yillarning boshida yillik o'rtacha aholining o'sishi 2,3-2,4 %ni keltirib chiqargan bo'lsa, o'n yillikning oxiriga kelib, bu ko'rsatkich 1,4-1,5 %gacha pasaydi. Ushbu sekinlashish tendensiyasi 2000-yillarning o'rtalariga qadar davom etdi, bunda o'sish sur'ati 1,1-1,2 %gacha kamaydi. So'nggi yillarda aholi soni o'sishining tezlashuvi qayd etildi va 2023-yilda o'sish sur'ati 2,2 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston aholisiga tabiiy o'sish va migratsion kamayish xos. Respublikada migratsion kamayishga

2-jadval

Hududlarning aholi soni bo'yicha guruhanishi, yil oxiriga

Guruh	2019-yil	2021-yil	2023-yil
1 mln gacha	Navoiy viloyati, Sirdaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo viloyati
1 mln dan 2 mln gacha	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlari	Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlari
2 mln dan 3 mln gacha	Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri	Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari
3 mln dan 4 mln gacha	Andijon, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlari	Andijon, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari	Andijon, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri
4 mln dan yuqori	-	Samarqand viloyati	Samarqand va Farg'ona viloyati

nisbatan tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining yuqoriligi aholi sonining ko'payishiga zamin yaratib kelmoqda.

1991-yilda respublika aholisi yiliga o'rtacha – 593,1 ming kishiga, 2000-yilda 391,9 ming kishiga, 2010-yilda 496,4 ming kishiga, 2018-yilda 613,6 ming kishiga oshgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023-yilda 789,2 ming kishini tashkil qilgan.

Mamlakatimizda 2005-yilgacha aholining migratsion kamayishi ortib, undan keyingi yillarda muntazam kamayib borgan. Ya'ni 1991-yilda – 30,3, 2005-yilda – 101,6, ming kishiga kamaygan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 14,4 ming kishini tashkil etgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarda aholi o'rtacha yiliga 400–450, 2000-yillarda esa 300 ming ming kishidan ko'paygan bo'lsa, bugungi kunga kelib, o'rtacha yillik umumiyl o'sish 775 ming kishini tashkil qilmoqda.

Bunda aholining zichligi ham ortib bormoqda, xususan 1991-yilda 1 km² yer maydoniga 46,1 nafar aholi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 82,0 kishiga teng bo'lgan. Aholining zichligi Andijon (789,4 nafar), Farg'ona (600,8 nafar) va Namangan (412,1 nafar) viloyatlarida yuqori.

Mustaqillik yillarda respublikada shahar aholisi soni 2,2 martaga, qishloq aholisi soni esa 39,5 foizga ko'paydi. Bugun kunda (2023-yil) O'zbekistonda aholining urbanizatsiya darajasi 51,0 foizni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadvaldan ko'rinish turganidek, 1991–2023-yillar davomida shahar va qishloq

aholisi sonining o'zgarishi bir me'yorda kechmagan. Xususan, 1991-yil shahar aholisining ulushi, ya'ni urbanizatsiya darajasi 40,0% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda mazkur ko'rsatkich 51,0% ga yetgan. Bu davrda qishloq aholisining ulushi mos ravishda 60,7 va 49,0 foizni tashkil etgan. Qishloq aholisi soni va ulushida 2009-yildan boshlab kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Mazkur holat ma'muriy o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdag "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir choratadbirlari to'g'risida"gi 68-sonli qaroriga ko'ra, respublikadagi 965 ta qishloq aholi punktiga shahar posyolkasi maqomi berilganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz doimiy aholisining 50,3 foizini erkaklar, 49,7 foizini ayollar (2023-yil) tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har 1000 nafar ayolga 1013 nafar erkak to'g'ri keladi. Ko'rinish turibdiki, aholining jinsiy tarkibida erkaklarning ustunligi kuzatiladi. Mazkur holat ayollarga qaraganda erkaklarning ko'proq tug'ilishi bilan izohlanadi. Jumladan, 2023-yilda respublika bo'yicha 498245 nafar o'g'il, 463717 nafar qiz bola tug'ilgan, ya'ni o'g'il bolalar 34528 nafarga ko'proq.

Aholining jinsiy tarkibida erkaklarning ustunligi 40 yoshgacha saqlanib qoladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda, 0–4 yosh guruhida har 1000 nafar erkakka – 927, 5–9 yoshda – 925, 10–14 yoshda – 937, 15–19 yoshda – 947, 20–24 yoshda – 953, 25–29 yoshda – 957, 30–34 yoshda – 971, 35–39 yoshda – 992 nafar ayol to'g'ri kelgan.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasining shahar va qishloq joylarida aholi sonining o'zgarishi, yil oxiriga

Yillar	Jami aholi soni, ming kishi	Shahar aholisi soni		Qishloq aholisi soni	
		ming kishi	jami aholi sonidagi ulushi, %	ming kishi	jami aholi sonidagi ulushi, %
1991	21106,3	8450,0	40,0	12656,3	60,0
2005	26312,7	9495,1	36,1	16817,6	63,9
2009	28001,4	14425,9	51,5	13575,5	48,5
2015	31575,3	15963,9	50,6	15611,5	49,4
2020	34558,9	17510,4	50,6	17048,5	49,4
2021	35271,3	17918,3	50,8	17353,0	49,2
2022	36024,9	18370,9	51,0	17654,0	49,0
2023	36799,8	18771,1	51,0	18028,7	49,0
2023-yilda 1991-yilga nisbatan o'zgarishi	+,-	15693,5	10321,1	5372,4	-11,0
	%	174,4	222,1	x	142,4

40–44 yosh guruhidan boshlab ayollarning ustunligi boshlanadi va yosh ulg‘aygan sari jinslar o‘rtasidagi nisbatdan farq kattalashadi. Jumladan, 40–44 yosh guruhida har 1000 nafar erkakka 1003 ta, 55–59 yoshda – 1104 ta, 65–69 yoshda – 1158 ta, 75–79 yoshda – 1362 nafar ayol to‘g‘ri keladi.

Erkaklar o‘limining ayollarnikiga nisbatan ko‘pligi muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. Bu faqat tahlil jarayonida biologik, genetik, ijtimoiy omillar va iqtisodiy shart-sharoit natijasi bilan bog‘lashadi xolos.

Yakuniy qism. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, jamiyatda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, mamlakatning demografik jarayonlarini tezkor va to‘g‘ri baholash maqsadga muvofiq. Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish va hududlarni kompleks rivojlantirish dastur-strategiyalarini ishlab chiqishda aholining

soni, yosh-jins tarkibi, hududiy joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy-demografik ma’lumotlardan foydalanish o‘rinli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi, jumladan,

1. Demografik jarayonlarni to‘laqonli baholash imkoniyatini to‘liq ta’minlash maqsadida Aholini ro‘yxatga olish tadbirlarini muntazam o‘tkazib borish (har o‘n yilda kamida bir marta).

2. Demografik o‘sish va demografik tarkib o‘zgarishi prognozlarini shakllantirish hamda ulardan to‘liq foydalanish mexanizimini joriy etish.

3. Hududiy va tarmoq dasturlarida demografik ma’lumotlar bazasini yaratish, demografik prognozlash sohasida xodimlar salohiyatini kuchaytirish va buning uchun tegishli funksional asos yaratish maqsadga muvofiqliqdir.

4. Aholi registrlarining ulkan imkoniyatlarini hisobga olgan holda, aholi registri tizimini joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3064981>.
3. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – B. 284.
4. Алексеев А.И. Социально-экономическая география России. – Москва: Новый хронограф, 2013. – 73 с.
5. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 113 b.
6. “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 24-maydagi 10-son qarori // <https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat..>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>.
8. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti: <http://new.cisstat.org/>
9. O‘zbekistonning demografik yillik to‘plami: 2018–2022-yillar. – 213 b.
10. Muallif ishlanmalari.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.